

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

M.Q.Yo'ldoshev – Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrası o'qituvchisi

Har qanday davlatni rivojlantirish avvalom bor jamiyatda bilimli xar tomonlama fikrlaydigan etuk mutaxassislarning ko'pligiga bog'liq. Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari bo'yicha 2022 yil 28 yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan video selektorda «Bu pedagoglarning dars o'tish mahorati etarli emas. Ular o'quvchilarga faqatgina o'zi chala bilgan narsalarni o'rgata oladi, xolos. Sababi o'qituvchilarning o'zining ustida mustaqil ishlash va rag'batlantirishning samarali tizimi yaratilmagan», - deb dars o'tish mahorati past o'qituvchilar haqida alohida to'xtalib o'tdi.[1]

Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat o'z fanini kuchli bilishi bu fanni o'qitishga qaratilgan kuchli pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik mahorat - o'qituvchining o'z fanlarini o'rganishda erishgan tajribalarini o'z faoliyatida ijodiy qo'llagan holda o'quv tarbiya ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida tinglovchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon buladi.

O'qituvchilik mahorati yuzasidan tahlil qilingan manbalarda «pedagogik mahorat» - «o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyati», «o'qituvchining

muomala madaniyati va nutq san'ati», «pedagogik nazokat, odob va ahloq», «turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat», «o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ilmiy ijodiy ishlash» kabi iboralar bilan tavsiflanadi. Demak, pedagogik maxorat o'qituvchining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus sifatlari bilan birga o'z kasbiga layoqatliligi, mehri bilan tavsiflanadi.

«O'qituvchi, - deydi Al-Farobiy, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur».

Pedagogik jarayonni boshqarish nimadan boshlanadi? Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tashkil etish, o'quv vaziyatlari bo'yicha qaror qabul qilish, kafolatlangan natijani qo'lga kiritish, nazorat qilish, kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirish bilan belgilanadi.

Buning uchun pedagog faoliyati quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- tarbiya va taxsil oluvchilarga ta'sir o'tkaza olish;
- talabchanlik;
- mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;
- obro'-e'tiborga ega bo'lish;
- pedagogik jamoa ishonchini oqlash;
- o'quvchilar faoliyatini to'g'ri idrok etish;
- ta'lim-tarbiya natijalarini kuzata bilish, baholay olish, zarur

holatlarda tanqid qila olish.

Pedagogga xos sifatlari: tashkilotchilik; kasbiy ishchanlik; muomalada kirishimlilik; har kanday vaziyatda o'zini tuta olish, vazminlik; kasbiy mahorat; uddaburonlik, bunyodkorlik; maslaxat bera oladigan; akd-idrokli; o'ziga ishonadigan; o'rnak bo'la oladigan; nazorat qila olish.

O'qituvchining kasbiy pedagogik maxoratining asosiy mazmun mohiyatini mezonlari va ko'rsatkichlari-pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika sirlarini puxta egallash va yuksak kasbiy salohiyatga - professionalizmga ega bo'lish,

ta'lim-tarbiya jarayonida tinglovchilar bilan o'zaro muloqot olib borish taktikasini qo'llash va ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardorligi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish, nutkining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish xamda amalga oshirish, pedagogik faoliyat jarayonida xulq-atvorini va xissiyotlarini jilovlay olish va boshqalar.

Demak, yuksak pedagogik mahorat egasi, ya'ni professional kasb egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida xam ilg'orlikni, xam ijodkorlikni, xam novatorlikni (yangilikka intilishni) tarbiyalashi lozim.

YUqorida keltirilgan ilmiy g'oyalar asosida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda unda o'z kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy mahoratini takomillashtirishni hamda dinamik ravishda rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo'yicha mukammal bilimlar, ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. SHu munosabat bilan, Texnologiya ta'limi o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalari ko'lami va sifati, uning ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim DTS talablari asosida tashkil etish va o'tkazish bo'yicha erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati va h.k. kabi murakkab va ko'p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, nazorat maqsadiga muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarni tahlili bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy-uslubiy asnosida tashkil etilishini talab qilmoqda.

SHuningdek bo'lajak Texnologiya ta'limi yo'nalishida o'qituvchilar tayyorlashda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishgacha ya'ni yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan

avtomatik-mexanizatsiyalashgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o'tib borishmoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Texnologiya fani darslarida tarkib topadi.

Texnologiya ta'limi fanida mehnat qilish bilan shug'ullanish kerak degan fikrdan uzoqlashgan holda ta'lim mazmunini shakllantirishda zamon talablariga javob beradigan, jahon standartlari asosida, mavjud imkoniyatlar hamda sharoitlarni hisobga olgan holda ham mazmunan, ham tuzilmaviy jihatdan modernizatsiya qilish kerak bo'ladi.

Demak bo'lajak "Texnologiya ta'limi" yo'nalishida o'qituvchilarini tayyorlashda ularda pedagogik bilim, texnologiya mahorat, ishlar chiqarishdagi barcha yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo'lgan holda kasbiy faoliyatida ta'lim mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish ko'nikmasiga ega bo'lgan kasbiy madaniyatga ega bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev SH.M. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 28.01.2022 y.
2. Muslimov N.A va boshkalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: "Sano-standart", 2015. - 120 b.